

VOLUME-1, ISSUE-5

MAQSUD SHAYXZODA HAYOTI VA IJODINI TARG'IB QILISH

Universitet lideri

Mustafayev Eldor Ilhom o‘g‘li

Talaba Komilov Akrom Oybek o‘g‘li

Annotatsiya: Ikki xalq dilbandi bo‘lmish Maqsud Ma’sum o‘g‘li Shayxzoda surgun bo‘lgandan, umrining oxirigacha bo‘lgan davr ichida o‘zining eng noyob, eng ijodi gullagan davrlarni boshdan o’tkazgan “Ikki xalq” - Ozarbayjon-O‘zbekiston yozuvchisidir.

Kalit so‘zlar: Maqsud Shayxzoda, ikki xalq farzandi, toshkent, asarlar, she’rlar, dostonlar, drama,

O‘zbek adabiyotining atoqli namayondalaridan biri, mashhur shoir, zabardars dramaturug, adabiyotshunos olim, tarjimon va Muallim Maqsud Shayxzoda 1908-yilning 25-oktabrda Ozarboyjonning Oqdosh shahrida tavallud topgan. Boshlang‘ich va o‘rta ma’lumotni Oqdoshda olgach, Boku Oliy pedagogika institutida sirtdan o‘qidi va 1925-yildan boshlab Derkend shahrida muallimlik bilan shug‘ullandi.

Shayxzoda 1928-yilda Toshkentga kelib, turli gazeta va jurnallar muharririyatlarda, 1935—1938-yillarda esa Fanlar Qo‘mitasi qoshidagi Til va adabiyot institutida ilmiy xodim, 1938-yildan to umrining so‘ngiga qadar Nizomiy nomli Toshkent Davlat pedagogika institutining o‘zbek mumtoz adabiyoti kafedrasida dotsent vazifasida ishlab, yuqori malakali kadrlar tayyorladi. Shoирning adabiy faoliyati 1929-yildan boshlangan. Uning “O‘n she’r” 1932-yil, “Undoshlarim” 1933-yil, “Uchinchi kitob” 1934-yil, “Jumhuriyat” 1935-yil nashr etildi va shu qatorda “Toshkentnoma”, “Bahorda yomg’ir”, “Muqimi”, “Muallim” sherlari ham chiqqan.

Urush yillarda shoir butun ijodiy quvvatini, qalb haroratini dushman ustidan g‘alaba qozonishga safarbar etdi. Urushning birinchi kunlaridanoq jang qahramonlarini ulug‘lovchi, front orqasidagi kishilarining fidokorona mehnatini ifodalovchi “Kurash nechun” 1941-yil, “Jang va qo‘sish” 1942-yil, “Kapitan Gastello” 1941-yil, “Jaloliddin Manguberdi” 1944-yil tarixiy dramasi va boshqa qator publisistik asarlarini yaratildi.Ulkan so‘z san’atkori haqida yozilgan ko‘plab maqolalar mualliflari – shoирning zamondoshlari va shogirtlari uning benihoya ulug‘vor, lekin shu qadar pokqalb, kamtarin inson bo‘lganini e’trof etaman. Chindan ham , ko‘plab talabalarga ustozlik qilgan Maqsud Shayxzoda hayotda ham, ijodda ham ulkan siymo bo‘lgan. Shoir serbaraka ijodiy umrida 20 dan ortiq majmualarga jamlangan sheriylar, ballada va dostonlar, 300 dan ziyod ilmiy va publisistik asarlar bilan yuksak didli, e’tiborli kitobxonlarga, tarixni o‘rganuvchilar va adabiyot ixlosmandlari-ilm-u ziyo ahliga maqbul bo’ldi.

Urushdan keyini tinch qurilish yillarda qatag‘onlik jabrini tortgan bo‘lsa ham, o‘z el-yurtiga fidoiy shoir Vatanimiz bo‘ylab keng quloch yozgan zafarli mehnat, tinchlik uchun kurash haqida “O‘n besh yilning daftari”, “Olqishlarim”, “Zamon torlari”, “Shu’la”, “Chorak asr devoni” kabi she’riy to‘plamlarini yaratdi.

1958-yili adibning ko‘hna va ayni chog‘da navqiron Toshkent shahriga bag‘ishlangan, uning tarixi, o‘tmishdagi madaniyat va xalqaro aloqalarini tasvirlovchi “Toshkentnoma” lirik dostonini yaratdi. Iste’dodli dramaturg 1960-yilda yozgan “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasida buyuk o‘zbek munajjimi va ma’rifatparvar podshosi obrazini yaratdi. Shayxzoda Pushkining “Mis chavandoz”, O‘zbek dehqonining og‘irini yengil qilgan ilk traktordan boshlab, fazoni zabit etishdek barcha ulug‘vor hodisalar, davr kishilarining zafarli ishlari, yurtning serjila lavhalari va insonning ko‘rkam jamoli uning qalamiga oshna, she’riyatiga ilhom va mazmun baxsh etadi.shuning uchun ham shoирning she’riyatiga ilhom va mazmun baxsh etadi. Shuning uchun

VOLUME-1, ISSUE-5

ham she'riyati chuqur gumanistik fikrlar, bashariy hissiyotlar, insoniyotning olam va koinot sirlarini, asriy hayotiy jumboqlarini yechishdagi orzu istaklari, jur'atkor tilaklari bilan to'liq. U muttasil ijodiy mehnat dardi bilan, bunyotkorlik ishtiyoqi va izlanish zahmati umr kechiradi. Lermontovning "Kavkaz asiri", Mayakovskiyning "Juda so'z" dostonlari va ko'plab she'rлarini, Shekspirning "Hamlet", "Romeo va Julietta" tragediyalari va sonetlarini, Nozim Hikmatning she'rлarini, ozarboyjon shoirlari asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Shayxzodaning o'zbek adabiyoti tarixi, o'zbek xalq og'zaki ijodiyoti, xususan, Alisher Navoiy ijodini tadqiq etish borasida yaratgan ilmiy ishlari ham tahsinga sazovordir. U filologiya fanlari nomzodi, dotsent ham bo'lган.

Maqsud Shayxzoda Sharq mifologiyasi va shu jumladan, o‘zbek folkloriga badiiy xazina bo‘lgan xalq mifologiyasini alohida tekshirish juda katta bir vaqt va ilmiy tayyorgarlikni talab qilishini o‘z vaqtidayoq to‘g‘ri ta’kidlagan edi. Qizig‘i shundaki, ko‘p yillar dev obrazni bizning folklorshunosligimizda sharhanmay kelindi. Dev obrazining vazifasini ko‘pchilik hozirgacha manfiy, yomonlik ramzi sifatida anglaydilar. Maqsud Shayxzoda bu obrazni har bir asardagi voqealar yo‘nalishiga qarab baholash zarurligini, devlar ko‘p holatlarda insonning yovuz dushmani emas, aksincha yechilishi mushkul tilsimlar sirini ochib, odamzodga qudratliko‘makdosh sifatida talqin etilganligi haqida ilk marta dadil fikr aytdi, o‘z fikrini eposlaridan olingan xarakterli dalillar bilan isbot qildi. Bundan tashqari, u “Shirin bilan Shakar” dostonining bir xususiyatini alohida uqtirib o‘tadi: “ qo‘limizdagи bu doston ma‘lum bir afsonaviy asardir. Haqiqatan ham bu dostonda tarixchietnograf uchun o‘rganishga sazovor birmuncha ma‘rifiy va etnografik ma‘lumotlar topish mumkin. Bu dostonni o‘qish bilan o‘quvchi ham eskiurushlarning texnikasin i, urush oldidan o‘zbeklarda polvonlarning chiqib bahslashuvlarini, urushda yengilgan lashkarlarning bizning zamonamizda bo‘lganiday, qilichlarni taslim qilmasdan, balki o‘z bo‘yinlariga olganlarini, ko‘pkari-uloq chopishning kelib chiqqanligi feodallardagi jazolash usullarini jallodlar gunohkorlar qo‘lini oldiga bog‘lagandan haqidagi materiallarni, burungi keyingi o‘zining mutlaqo o‘lajagini bilar va yana birmuncha an‘analarni, qiziq ilmiy ham ruhiy xususiyatlarini tekshirib borishi mumkindir. Zotan, yaxshi, go‘zal, badiiy bir doston boshqacha turli bo‘lolmaydi. U qancha xayoliy, afsonaviy bo‘lmasin, mutlaqo ma‘lum tarixiy bir davrning real chiziqlarini o‘ziga singdirib olishi tabiiyidir”. Ma‘lumki, xalq og‘zaki ijodi asarlari tildan-tilga, avloddan-avlodga o‘tib keladi. Natijada bu asarlar turli o‘zgarishlarga uchraydi, ma‘lum tarixiy sharoitgagina xos bo‘lgan ayrim o‘rinlari tushib qoladi, yangi voqealari va qarashlar kirib keladi. Binobarin, ayrim xalq og‘zaki ijodi asarlarida, ayniqsa, doston va ertaklarda, turli tarixiy sharoitga oid voqealar, urf-odatlar, fikr va qarashlar aks etganini ko‘ramiz “Algomish” ham shunday asralardan biridir. Ham mazmuni, ham shakli jihatidan xalqchil bo‘lgan “Algomish” o‘zida xalqning og‘zaki poeziyasidagi she’riy qoidalarni, shakkllarni, usullarni o‘ziga xos ravishda o‘zlashtirib olganini ko‘ramiz. Shuning uchun ham adabiyot tarixi bilan qiziquvchi tadqiqotchi bu ulkan badiiy meros xususida ma‘lum tasavvur va xulosalarga kelmay turib, adabiy jarayon, shakl va usullarning, obraz badiiyatining taraqqiyoti to‘g‘risida chuqur fikrmulohaza yuritishi amri maholdir. Maqsud Shayxzoda 1956-yilda “Algomish” dostonidagi ba’zi bir poetik xususiyatlar haqida tadqiqot olib borar ekan, bu dostonning vazni, badiiyati, g‘oyaviy-badiiy xususiyati, mazmuni, obrazlar olami xususida keng ma‘lumot beradi. Jumladan, “Algomish” dostonining ritmik negizi sillabik sistema (“hijo vazni yoxud barmoq vazni”) ekanligi, bu vazn turkiy tillarda so‘zlovchi barcha xalqlarning og‘zaki poeziyasiga xos bir vazn bo‘lib kelganligini aytib o‘tadi. Bundan tashqari, Maqsud Shayxzoda dostonidagi uchraydigan poetik xususiyatlar: saj’, qofiya, radif kabilarga alohida to‘xtaladi. Olim: “Dostonda qofiyaga riosa qilish va unga moyillik shu qadar zo‘rki, hatto she’rlar o‘rtasiga

VOLUME-1, ISSUE-5

kiritilgan she'riy parchalar ham qofiyalangan”, deb misol tariqasida shu parchani keltiradi: “Barchinoyni otdan tushirib yotgan, besh yuz sepini ortgan, qirqin kanizlar Barchinni baxmal uya olib ketgan, toza liboslarni bu uya solib yetgan, hammasi choydish-qumg‘onni qaynatgan hokazo” Bu she'r emas, nasr (prozadir). Ammo qofiyalangan nasrdirki, buni mumtoz adabiyotda saj' deb ataladi. Demak, bu usul ham xalq poeziyasida chuqur ildizlarga ega. Shayxzoda asarlari qardosh xalqlar va xorijiy tillarga tarjima qilingan. Shoir tarjima jarayonida qardosh xalqlar va jahon adabiyoti namoyondalarining mahorat maktabidan ta'lif olib, ilg‘or an'analarini o‘zida mujassamlashtirgan she'rlar yozgan. Shayxzoda 1967-yilning 19-fevralida vafot etdi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Mamurova, F. I., & Mustafoev, E. (2021, October). Aksonometrik Proyeksiyalarning Asosiy Teoremasi. Dimmetrik Aksonometriya Qurish. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 100-103).
2. Mamurova, F. I. ugli Mustafayev, EI (2021). SHADOWS IN A PERSPECTIVE BUILDING. Conferencious Online, 16-18.
3. Рахмонова, М. К., Хамдамов, К. К., Парпиева, М. К., & Абдуллаева, Г. Д. Метод применения трехграммы против яблонной плодожорки. Zbiór artykułów naukowych recenzowanych, 160.
4. Tursunnazar o‘g‘li, O. J., & Ilhom o‘g‘li, M. E. (2023, May). ODDIY FERMA STERJENLARIDA QO’ZG’ALMAS YUKLAR TA’SIRIDAN ZO’RIQISHLARNI TOPISH, ODDIY FERMA STERJENLARIDAGI ZO’RIQISHLARI UCHUN TA’SIR CHIZIQLAR QURISH VA ULARNI BERILGAN YUK BILAN YUKLASH. In International Conference on Research Identity, Value and Ethics (pp. 262-268).
5. Begali o‘g‘li, A. E., Ilhom o‘g‘li, M. E., & Tursunnazar o‘g‘li, O. J. (2023). EKSKAVATORLAR BILAN GRUNT QAZISH TEXNOLOGIYALARI. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(24), 132-140.
6. Begali o‘g‘li, A. E., Ilhom o‘g‘li, M. E., & Tursunnazar o‘g‘li, O. J. (2023). EKSKAVATORLAR BILAN GRUNT QAZISH TEXNOLOGIYALARI. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(24), 132-140.
7. Begali o‘g‘li, A. E., Ilhom o‘g‘li, M. E., & Tursunnazar o‘g‘li, O. J. (2023). EKSKAVATORLAR BILAN GRUNT QAZISH TEXNOLOGIYALARI. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(24), 132-140.
8. Mikhailovna, M. M., Uglu, M. E. I., & Uglu, K. J. J. (2023). DIGITAL TECHNOLOGIES WHEN PERFORMING WEIGHING CALCULATIONS. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(6), 44-46.
9. Sulaymanova, S. S. (2023, May). иCHANGING EDUCATIONAL STRATEGIES FOR TEACHING FOREIGN LANGUAGES AT UNIVERSITY: FROM LEARNING TO TEACHING STRATEGIES. In Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities (Vol. 2, No. 6, pp. 103-108).
10. Amirkulovich, T. S. (2023, May). APPLICATION OF MODERN SMALL MECHANISMS IN RAILWAY TRACK REPAIR. In Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes (pp. 172-176).
11. Pirnazarov, G. U. F. (2023). KO ‘NDALANG KESIMI TRAPETSIYASIMON BO ‘LGAN TEMIR BETON TUTASH BALKALARINI HARAKATLANUVCHI YUKKA HISOBBLASH. SO ‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 6(5), 29-34.
12. Xalilova, R. X., & Ilhom o‘g‘li, V. E. (2022, December). ATMOSFERANI MUHOFAZA QILISH. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 120-123).